

**FYODOR DOSTOEVSKIYNING „JINOYAT VA JAZO” ASARIDAGI
FALSAFIY VA DINIY MAVZULAR**

Odilova Odina

Navoiy Davlat Pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Ochilova Nafisa Usmonovna**

Annotatsiya: Ushbu maqola Fyodor Dostoevskiyning „Jinoyat va Jazo” asaridagi ko’plab falsafiy muammolar, tarbiyaviy estetik g’oyalar, aqliy faoliyatning rivojlanishi, dunyoqarash, shaxsning ehtiyojlari, ijtimoiy xulq-atvor motivlari, faoliyat va qadr-qimmatning tutgan o’rni haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: „Jinoyat va jazo” asari, falsafiy muammolar, rus va jahon adabiyoti, tushkinlik, ma’naviy muammolar.

Annotation: This article describes in detail many philosophical issues, educational aesthetic ideas, the development of mental activity, worldview, individual needs, motives of social behavior, the role of activity and dignity in Fyodor Dostoevsky's work "Crime and Punishment". is considered.

Key words: Crime and Punishment", philosophical problems, Russian and world literature, depression, spiritual problems.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены многие философские вопросы, воспитательные эстетические идеи, развитие психической деятельности, мировоззрения, индивидуальных потребностей, мотивов социального поведения, рассмотрена роль активности и достоинства в произведении Фёдора Достоевского «Преступление и наказание».

Ключевые слова: «Преступление и наказание», философские проблемы, русская и мировая литература, депрессия, духовные проблемы.

Mashhur rus yozuvchisi Dostoyevskiy Fyodor Mixaylovich 1821-yil 11-noyabrda Rassiyaning Moskva shahrida tavallud topgan. 1884-yildan ijod faoliyati boshlanib, birinchi romani 1846-yilda xo’rlangan va ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo’lganlar qismati haqida hikoya qilinib, „Kichkina odamlar” nomi bilan nashr qilinadi. Dostoyevskiy hayoti davomida ko’plab qiyinchiliklarga uchraganidan so’ng, uning asarlarida tushkunlik ustuvor mavzuga aylanadi. 1859-yil „Stepanchikov qishlog’I va uning axoliyey” , 1861-yilda „Xo’rlanganlar va haqoratlanganlar”, 1861-1862-yillarda „O’lik xonodondan maktublar” nomi asarlari jaholat botqog’iga botib, insoniy qiyofasini yo’qotgan ruslar hayotiga bag’ishlanadi. Shundan sung, Dostoyevskiy akasi bilan hamkorlikda 1861-1863-yillarda „Vremya”, 1864-1865-yillarda „Epoxa” jurnallarini nashr etadi. Adibning 1866-yilda „Jinoyat va jazo”, 1868-yilda „Telba” nomli romanlarida rus xalqining ma’naviy muammolari badiiy bo’yoqlarda yaqqol aks ettirilgan.

Dostoyevskiyning ijodi, garchi ziddiyatli bo’lsada, rus va jahon adabiyotida katta ta’sir ko’rsatgan. Uning romanlari vazmin tasviriy uslubi emas, aksincha, sof dramatic janrlarga xos keskinligi va liro publitsistik pafosi bilan ajralib turadi.

F.M.Dostoevskiyning „Jinoyat va jazo” asari birinchi martta 1866-yilda „Rus xabarchisi” jurnalida nashr etiladi va klassikasining eng buyuk asarlaridan biri deya etirof etilgan. Romanda muallif ko’plab ijtimoiy, axloqiy va falsafiy muammolarni qamrab olgan. Bu esa o’z navbatida hayotning, fikrning va haqiqatning turli sohalarini chinakamiga ajoyib ravishda aks ettiradi. Romanda mavjud muammolarga qarshi isyon ko’tarish, inson huquqlari va hayot yo’lini tubdan o’zgartirish ,nigilizm va uning mohiyati, shaxsning axloqini qayta tarbiyalash, azob-uqubatlarga barham berish, baxtga erishish va bu yo’llarni inson tomonidan tanlash, inson hayotining qiymati va ahamiyati, qashshoqlik, pul va avtokratiya muammosi, napoleonizm mavzusi orqali hokimiyatga intilishning buzuqligi, shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar, xudbinlik va altruizm, jinoyat, insoniy va ijtimoiy jazoning mumkin bo’lgan shakli, sud islohatlariva usha davrda Rassiyada tergov amaliyotining turi kabi mavzularda muammolar ko’tarilgan. Asar qahramonlari qashshoqlik tufayli ko’plab qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, sudxur kampirni o’ldirish va uning puli tufayli yuzlab, minglab yoshlar azob-uqubatdan xalos bo’lishi mumkinligi qahramonning qonli zo,ravonlikka nisbatan nafratini, bolaligi esga tushgandan sung esa bu nafrat yanada oshishiga sabab bo’ladi. Raskolnikov qashshoqlikdan kelgan qiyinchilik tufayli nafaqat kampirni balki, kutilmaganda uning uyiga tashrif buyurgan muloyim,oqkungil singlisi Lizavetani ham bolta bilan chopib o’ldirishga majbur bo’ladi. Va bu ishi uning odamlardan uzoqlashishiga sabab bo’ladi.Romanning muhim xususiyatlaridan biri bu- insonning psixologiyasi hisoblanadi. Uning tashqi dunyosi kabi ichki dunyosi ham go’zal bulishi lozimdir. Romanda qahramonning ichki dunyosiga nisbatan yangicha yondashuvlarni ochib beradi. U katta yutuqlarga erishaman deb qilgan xatolari uning imkoniyatlarini cheklashga sabab bo’ladi. Qahramon kampirning o’limi ortidan ezgulikni kuzlaydi, ammo, bu unga ulkan baxtsizliklar olib keladi.

Fyodor Dostoevskiy psixologik jihatdan juda qiyin, ammo, falsafiy jihatdan juda yetuk deb tan olingan ushbu ramani, boshqa detektivlardan farqli o’laroq boshlanishi jinoyat va jinoyatchi aniq, lekin hamma gap „jazo”da edi. Jazo qahramonda jismonan emas, balki ruhiy berilgandi. Adib asarda har bir qahramonning ichki dunyosini tom ma’noda ochib beradi. Fikrlashning soddaligi har doim ham ishonuvchanmasligini, insonning yaxshi tabiati unda yomonlik belgisining yo’q emasligini ko’rsatib beradi. Har doim dolzarb bo’lib qoladigan muammo insonning ichki kurashidir. His-tuyg’ular, fikr kuchi, hissiyot, ruhiy iztirob onginging mo’rtligi- bu kitob mazmuni hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Jinoyat va jazo” asari. G’ofur G’ulom nomidagi „adabiyot va san’at” nashriyoti.1977
 2. Tucker, J. (2009). Dostoevsky’s “Crime and Punishment”: Stopping History’s Clock. Russian History
 3. Gibian, G. (1955). Traditional Symbolism in Crime and Punishment.
- Bourgeois, P. (1980). Dostoevsky and Existentialism: An Experiment in Hermeneutics. Journal of Thought, 15(2), 29-37. Retrieved May 8, 2021, from

www.ziyouz.com

www.gigafox.ru